ROBERT SHUMANNING “ALBOM DLYA YUNOSHESTVA” TURKUMI TO‘PLAMIDAGI ASARLARINING GERMENETIK TAHLILI.

Герменевтический анализ произведений цикла “Альбом для юношества” Роберта Шумана.

A Hermeneutic Analysis of the Works from Robert Schumann’s Cycle “Album for the Young”.

Soliyeva Maftunaxon Kaxramonjon qizi
FarDU, Pedagogika-psixologiya va
san’atshunoslik fakulteti
Musiqa ta’limi va san’at yo‘nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada Robert Shumanning “Yoshlar uchun albom” (“Albom dlya yunoshestva”) turkumidagi kichik shaklli fortepiano asarlari tahlil qilinadi. Asarda kompozitorning bolalar psixologiyasini nozik his etishi, musiqiy obrazlarni pedagogik maqsadlar bilan uyg‘unlashtira olgani yoritilgan. “Smeliy naezdnik”, “Narodnaya pesenka”, “Vesyoliy krestyanin” va “Ded moroz” pyesalari misolida ularning shakli, xarakteri, ijrochilik va o‘qitish jarayonidagi muhim jihatlari tahlil qilinadi. Maqola bolalar musiqa maktablari o‘qituvchilari va fortepiano ijrochilari uchun metodik ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: Robert Shuman, “Yoshlar uchun albom”, kichik shaklli asarlar, fortepiano pedagogik repertuari, bolalar musiqasi, romantizm davri musiqasi, musiqiy obraz, ijro texnikasi, stakatto va legato, dinamika, musiqiy shakl, polifonik eshitish, o‘quvchilar ijrochilik malakasi, barmoq texnikasi, bilak harakati, musiqiy ifodalilik

Аннотация

В данной статье рассматриваются произведения малой формы из цикла Роберта Шумана «Альбом для юношества». Особое внимание уделяется художественно-педагогическому значению цикла, а также умению композитора тонко передавать внутренний мир и эмоциональные переживания детей. На примере пьес «Смелый наездник», «Народная песенка», «Весёлый крестьянин» и «Дед Мороз» анализируются их форма, характер, исполнительские трудности и методические особенности работы с учащимися. Статья представляет интерес для преподавателей детских музыкальных школ и студентов музыкальных учебных заведений.

Ключевые слова:Роберт Шуман, «Альбом для юношества», пьесы малой формы, фортепианный педагогический репертуар, детская музыка, музыка эпохи романтизма, музыкальный образ, исполнительская техника, стаккато и легато, динамика, музыкальная форма, полифоническое мышление, развитие п ианистических навыков, пальцевая техника, работа кисти, музыкальная выразительность

Annotation

This article analyzes short piano pieces from Robert Schumann’s cycle “Album for the Young.” The study highlights the composer’s unique ability to reflect children’s emotional world and to combine artistic imagery with pedagogical purpose. Using the pieces “The Wild Rider,” “Folk Song,” “The Merry Peasant,” and “Father Frost” as examples, the article examines their musical form, character, performance challenges, and teaching approaches. The work is of methodological value for piano teachers, students, and performers involved in children’s music education.

Keywords: Robert Schumann, *Album for the Young*, small-form compositions, piano pedagogical repertoire, children's music, Romantic era music, musical imagery, performance technique, staccato and legato, dynamics, musical form, polyphonic hearing, development of pianistic skills, finger technique, wrist movement, musical expressiveness

Kirish

Musiqa ta'limida kichik shaklli asarlar ustida ishlash o‘quvchilarning ijrochilik mahoratini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, bolalar va o‘smirlar uchun mo‘ljallangan fortepiano pyesalari texnik ko‘nikmalarni bosqichma-bosqich rivojlantirish, musiqiy tafakkurni kengaytirish hamda badiiy obrazni his etib ijro etish qobiliyatini tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Bu borada romantik davrning buyuk bastakori Robert Shumanning fortepiano uchun yozilgan pedagogik asarlari alohida e'tiborga loyiqdir.

Robert Shumanning “Albom dlya yunoshestva” (“Yoshlar uchun albom”) turkumi nafaqat o‘quvchilar uchun qulay va tushunarli bo‘lgan kichik shaklli pyesalardan iborat, balki chuqur badiiy mazmun, aniq musiqiy xarakter va obrazlar bilan boyitilganligi bilan ham ajralib turadi. Ushbu to‘plamda har bir asar o‘ziga xos mazmuniy g‘oya, xarakter va ijrochilik vazifalarini mujassam etib, o‘quvchining texnik imkoniyatlari bilan bir qatorda musiqiy tafakkuri va estetik didini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuman mazkur turkumni yaratish jarayonida bolalar psixologiyasini, ularning musiqani qabul qilish xususiyatlarini chuqur hisobga olgan. Natijada “Albom dlya yunoshestva” pedagogik repertuar doirasidan chiqib, badiiy jihatdan yetuk, mazmunan boy asarlar majmuasiga aylangan. To‘plamdagi pyesalar orqali o‘quvchi turli xarakterdagi musiqiy obrazlar — quvnoqlik, lirizm, hayajon, dramatizm va xalqona ohanglarni anglay boshlaydi.

Ushbu maqolada “Albom dlya yunoshestva” turkumidagi ayrim pyesalar — “Smeliy naezdnik”, “Narodnaya pesenka”, “Vesyoliy krestyanin” va “Ded moroz” asarlari misolida kichik shaklli asarlar ustida ishlash masalalari yoritiladi. Asarlarning musiqiy tuzilishi, xarakteri, texnik va ijrochilik xususiyatlari tahlil qilinib, ularni o‘rganish jarayonida uchraydigan muammolar hamda ularni bartaraf etish yo‘llari ko‘rsatib beriladi.

Mazkur tahlil musiqa maktablari va san’at ta’limi muassasalarida tahsil olayotgan o‘quvchilar hamda fortepiano o‘qituvchilari uchun uslubiy qo‘llanma sifatida xizmat qilishi mumkin.

Asarlar tahlili

Robert Shuman mashhur nemis bastakori, musiqiy tanqidchi, romantik davrning eng yirik bastakorlaridan biri 1810-yil 8-iyunda Germaniyada tug’ilgan. Turli janrlarda asarlar yaratib, o’zidan boy meros qoldirgan bo’lsada, “Al’bom dlya yunoshestva” diqqatga sazovor to’plam hisoblanadi.

O’sha davrda bolalar uchun pyesalar, sonatalar, etyudlar, variatsiyalar, raqs shakllari yaratilgan. Juda kam asarlar bolaning psixologiyasini ochib berardi.Shumanning xizmati shundaki, u bastakorlar orasida birinchi bo’lib bolalarning his-tuyg’ulari va kechinmalarini katta mehr va badiiy kuch bilan yetkazgan.

Smeliy naezdnik asarining yozilishi 1848-yilda yaratilgan “Albom dlya yunoshestva” bilan uzviy bog’liq.

Farzandlarini juda yaxshi ko’rgan kompozitor katta qizi Mariyaning tug’ilgan kuniga kutilmagan sovg’a tayyorlab, sevimli qizi uchun kichik bir asar yozdi va bu uning barcha oila a’zolariga yoqdi. Yaqinlarining bunday qo’llab-quvvatlashi kompozitorni nafaqat bolalar tomonidan qiziqish bilan qabul qilinishi, balki

pianino ijrochiligi san’atini ishtiyoq bilan egallashga yordam beradigan kichik asarlar to’plamini yaratish g’oyasiga turtki bo’ldi.

Barcha asarlar yozib bo’lingandan so’ng, Shuman asarlarni musiqiy murakkabligiga ko’ra 2 qismga ajratdi va nashriyotga berdi. Birinchi qism 18 ta, ikkinchi qism 25 ta asardan iborat Dastlab 1848-yilning oxirida to’plam “Bolalar uchun rojdestvo albomi” nomi bilan nashr etildi. Ikkinchi tahriri esa 1851- yilda haqiqiy nomi-“Yoshlar uchun albom” nomi bilan nashr etildi.

Smeliy naezdnik

Asarga lya minor tonalligi tanlanganiga qaramasdan, Shuman Smeliy naezdnik ni quvnoq, jonli tarzda tasvirlagan. Poyga ritmini aks ettiruvchi ot tuyog’ining taqirlashi yaqqol seziladi. Asar oddiy uch qismli shaklda yozilgan bo’lib, birinchi qismni aynan takrorlovchi repriza mavjud. Pyesa taktoldi bilan *mf* dan boshlanadi. 6 xissali o’lchovda, uzluksiz ritmik pulsatsiyada, tonika uchtovushligi bo’ylab sakrashlar orqali yuqoriga intiladi. Stakattoning namoyon etilishi musiqaga jonli xarakter va jo’shqinlik beradi. Kuy ohangining intonatsiyasi 2-,3-,6- va 7-taktlarning birinchi xssasidagi *sf* va ligaga olib boriladi, ammo bu *sf* keskin urg’uni anglatmaydi. Faqatgina umumiy tovush balandligidan biroz ajratib ko’rsatishni anglatadi. Uni yumshoq, erkin ijro etish lozim. O’rganish davrida sekin tempda har bir kuchli va nisbatan kuchli xissalarga aksent ijro etish lozim. Asar o’rganilgandan so’ng aksentni olib tashlab, faqatgina *sf* ga olib borish uchun melodik chiziqlarni intilishini ta’minlaymiz. Ligalarga o’tirib chalish o’quvchilarda qiyinchilik yuzaga keltiradi, buning uchun ko’p marotaba mashq qilish orqali o’rgatiladi. O’ng qo’l va chap qo’ldagi tovushlar yaxlit bir akkord kabi eshitilishi uchun o’ng qo’ldagi nimchorak va chap qo’ldagi akkordlarni birlashtib, har biri ishlanadi, har bir iboradan oldin nafas bilan boshlanadi.



Ikkinchi qism birinchi qismga kontrast ravishda ketadi. Chunki ikkinchi qism majorda yozilgan va mavzu yuqori ovozdan pastki ovozga o’tkaziladi. Shu sabali asarning xarakteri yorqinroq va jonliroq shaklga o’zgaradi. Ikkinchi qismda ham birinchi qism kabi 2-,3-,6- va 7-taktlarning birinchi xissasidagi *sf* va liga olib boriladi. Bunda ham kuchli nisbatan kuchli xissalarga aksent berib ishlanadi. Mavzuning chap qo’lga o’tishi o’quvchida qiyinchilik paydo qiladi, chunki ko’pincha mavzu o’ng qo’lda ketadi. Shuning uchun bu qismni har bir taktini alohida ishlab, juda ko’p takrorlash orqali o’rgatamiz. Bu qismda ham birinchi qism kabi ligalarni alohida ishlanadi. Sababi, stakattodan ligaga o’tish o’quvchi uchun murakkab tuyuladi.



Uchinchi qism birinchi qismni aynan takrorlaydi.



Asarni ijro qilishdagi qiyinchiliklar:

-nafis va yorqin ijro etish uchun stakattoni kistni ishlatgan holda bajarish, shu bilan bir qatorda butun asar davomida barmoqlar faolligini unutmaslik lozim.


-mavzu va akkomponimentni ijro etishda muvozanatni topa bilish

Bu pyesa barmoqlar mustahkamligi va bilak (kist) harakatlarini yengillashtirishni rivojlantirish uchun foydali.

Smeliy naezdnik asari bugungi kunda bolalar musiqa maktablarida eng ko’p ijro etiladigan asarlardan biri bo’lgan pedogogik repertuar hisoblanadi.

Narodnaya pesenka

Re minor tonalligida, 4/4 o’lchovida yozilgan bu asar oddiy uch qismli shaklda bo’lib, I va III qismlar g’amgin, II qism esa quvnoq tempda yozilgan. I va III qismlar sokin, ohangdor bo’lib, kuy eshitilishidan torli cholg’ularni eslatuvchi akkomponimentli solodan boshlanadi. Dastlabki ikki takt yakkaxon ijrochi savol berib, keying ikki takt xor jamoasidan javob berilgandek tasvirlangan. 1-,2-,5- va 6-taktlardagi mi notasi ustidagi belgi uni ajratib ko’rsatish kerakligini bildiradi. Asar pianodan boshlanib, 3-taktdagi fortega olib boriladi va darhol piano qilinadi. Keyingi ibora ham xuddi shunday. Arpedjioli akkordlarni ijro etishda o’quvchilarni qo’lini arpedjio emas, balki akkordga tayyorlab, barmoqlarini ko’tarmasdan, bilakni (kist) beshinchi barmoqdan birinchi barmoqqa harakatlantirib chaldirish lozim.



Asarning o’rta qismi I va III qismga zid ravishda quvnoq, nafis va folklor raqslar janrida yozilgan. Punktir ritmida, yengil o’tkir stakatto musiqaga quvnoq, o’ynoqi kayfiyatni beradi. Bu qismga aynan tezlashtirilgan temp yozilmagan, lekin “quvnoq” tempi, cho’zimlarning bo’linishi ya’ni, o’n oltitalik, o’ttiz ikkitalik nota cho’zimlarining paydo bo’lishi, o’tkir punktir ritmi – jadal harakatda ekanligini

bildiradi. II qism biroz murakkab bo'lib, 1-taktning o'zida yarim, nimchorak, o'n oltitalik va o'ttiz ikkitalik notalardan tashkil topgan. Bu esa o'quvchida ritmik qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Buni bartaraf etish uchun nota cho'zimlarni kengaytirib sanaymiz. Masalan, o'n oltitalik notani nimchorak kabi, nimchorak notani esa chorak kabi sanab o'rgatamiz yoki nimchorak notalarni 4 ga bo'lib sanaymiz. Bu qismda ham mavzuga arpedjioli akkordlar hamrohlik qiladi, 3-takt kulminatsiya hisoblanib, undan so'ng sekin-asta tovush pasaytiriladi.



III qismda mavzu chap qo'lga, o'rta ovozga o'tadi. Xuddi I qism kabi nafis, sokin va chuqur ijro etiladi.



O’quvchining e’tiborini kompozitor bir xil elementlarga turlicha yondashganiga qaratish lozim. Masalan I qismdagi arpedjiolar nafis, mayin, xuddi arfada ijro etilgandek chalinishi, II qismda esa xuddi shu arpedjiolar torlarning jarangdor tovushini, ritmik xarakterni ko’rsatadi. Bu pyesa o’quvchilarga chuqur, yorqin tovushlar va legato chiqarish ko’nikmalarini egallashga yordam beradi va ijroda badiiy obrazni o’rgatadi.

Vesyoliy krestyanin

Vesyoliy krestyanin asari yorqin va quvnoq. Kompozitor bu asarda hayotdan xursand, hech narsaga qaramay quvnoq, qishloq yo’li bo’ylab kata qadamlar bilan o’z kayfiyatini ko’tarib ketayotgan dehqonni tasvirlagan. Kompozitor ushbu pyesa uchun F-Dur tonalligini tanlagan. Asar oddiy 2 qismli bo’lib, asarning oxirida birinchi qismdan bir ibora yangraydi.

Asar ohangi kuychan, musiqaning quvnoq, faol harakatdaligi o’ng qo’l orqali ko’rsatiladi. Mavzu esa chap qo’lda ya’ni basda ketadi. Mavzuni ravon, silkinishlarsiz, bilakni (kist) erkin qo’yib ijro etish kerak. Odatda o’quvchilar o’ng qo’lda mavzu va chap qo’lda akkomponiment chalinishiga o’rgangan. Bu asarda aksincha ekanligi, o’ng qo’l chap qo’l tovushidan baland chiqmasligi, yengil chalinishi, chap qo’lga akkomponimentlik qilishi qiyinchilik keltirib chiqaradi. Buni bartaraf etish uchun o’ng qo’lni alohida chap qo’lni alohida ishlash kerak. Chap qo’l erkin va yetralicha ravon chalishi uchun faqatgina bilakni (kistni) erkin ishlatish orqali mavzuni ko’rsata oladi. O’ng qo’ldagi akkomponiment yengil, pastroq tovushda, tekis chalinadi. Asar *mf* dan boshlanib, 2-taktga krishendo qilamiz va 2-taktni *f* chalamiz. 3-taktdan sekin-asta diminuendo qilib, 4-taktni *p* chalamiz. Davomi ham xuddi shunday.



II qism uch ovozlik shaklida yozilgan. II qismda akkomponiment o’rta ovozga o’tib, 1-3- ovozda mavzu ketadi va o’rta ovozda akkomponimentni ijro qilinadi.Bu esa o’quvchida yuqori ovozdagi chorak notalarni ushlab, o’rta ovozdagi nimchorak notalarni chalishda qiyinchilik tug’diradi. Shuning uchun har bir ovozni alohida-alohida ishlab, keyin qo’shib chaldiramiz. II qism *mf* dan boshlanadi va 3-taktga krishendo qilib *f* ga olib boramiz. 5-taktdan boshlab, sekin-asta diminuendo qilamiz, chunki bu taktda 3 ta bir xil akkorda ijro etiladi. Agar 3 ta bir xil tovush, akkorda yozilgan bo’lsa krishendo yoki diminuendo qilinadi, bu vaziyatda biz diminuendo qilamiz va 6-taktni *p* chalamiz, keyin yana xuddi shunday davom etadi.





Ushbu asar ustida ishlash qo’llarning mustaqilligini, chap qo’lni ohangni boshqarish va o’ng qo’lda past tovushda, aniq ravon ijro qilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Ded moroz

Ushbu asarning majoziy ma’nosi haqida gapirganda, asar nomi tufayli yuzaga keladigan ba’zi chalkashliklar mavjudligini ta’kidlash lozim. Bizga “ded moroz” nomi bilan ma’lum bo’lgan bu asar aslida “Knecht Ruprecht” ya’ni nemis tilidan aniq tarjima qilinganda –“qul Ruprext’ ma’nosini bildiradi. Ushbu personaj haqidagi to’liq ma’lumot asarni yanada tushunarliroq ijro etishga yordam beradi. Ruprext-nemis folklorida rojdestvo mobaynida muqaddas Nikolayning hamrohi bo’lgan.Xo’jayiniga qaraganda Ruprext yaxshi xulq-atvorga ega emas edi va Rojdestvo oldidan uylarni aylanib chiqib, yaxshi va yomon bolalarni taqdirlash yoki aksincha jazolash uchun qayerda yashashlarini bilib oladi. Ruprext itoatkor bolalarga shirinliklar sovg’a qiladi va quloqsiz bolalarni kul to’ldirilgan qop bilan uradi. Bu asar ushbu afsonaga asoslanib, yaqinlashib kelayotgan yovuz Ruprext va qo’rquvdan titrayotgan bolalarni tasvirlaydi. Kuyni hayajonli va xattoki dramatic deb tasvirlash mumkin bo’lgan bu asarni kompozitor murakkab 3 qismli shaklda yozgan. I qism 3 qismga bo’lingan. 1-qism pastki registrdan boshlanadi va kuchli va nisbatan kuchli xissalarga urg’u berilgan holda melodik chiziqlar faol ravishda yuqoriga yo’naltirilgan. O’quvchi kuchli xissalarga urg’u berishda, *liga* larga o’tirishda qiynaladi, buni sekin tempda ishlanadi.kuyning unison ravishda ijro etilishida o’quvchi tekis chala olmasligi, o’ng qo’l va chap qo’lda birga ketmasligi mumkin, bunda juda ko’p takrorlash orqali, mashqlar orqali,

chap qo’lga qarab, uni asosiy qo’l qilib chalish orqali tekislanadi. Har bir ibora *f* bilan ifodalangan akkordlar bilan yakunlanadi. Shu *f* ga olib boriladi.



2- qism qora klavishdan boshlanganligi sabali 1-qismdan 2-qismga o’tishda ham o’quvchida qiyinchilik paydo bo’lishi mumkin. Buni bartaraf etish uchun 1-qismning oxirgi taktidan 2-qismning 1-taktiga o’tishni ko’p marotaba takrorlash orqali to’g’rilanadi.2-qismi 1-qismga teskari ravishda yozilgan, ya’ni 1-qismda melodik chiziq yuqoriga qarab ketgan bo’lsa, 2-qismda pastga qarab yo’naltirilgan.Oktavalar orasidagi masofa qo’lini qisib, erkin ijro eta olmaydigan o’quvchilar uchun foydali.



3-qism 1 oktava yuqorida xuddi birinchi qism kabi yozilgan. Va bu qismning 4-taktida 5-taktga tayyorlovchi aksentli akkordlar ifodalangan.



II qism 8 taktdan iborat 3 ta qismni o’z ichiga oladi. I qismdagi mavzuni qarama-qarshiligini davom ettirgan holda II qismda o’ng qo’l va chap qo’lda mavzu bir-biriga qarama-qarshi ravishda ketadi.bu qism pianodan boshlanadi. 2-taktda ozgina krishendo qilib, taktni oxiriga diminuendo qilinadi. O’rta qismning 1-qismida har 2 ta taktni bitta legatoda chalamiz va har bir yangi legatodan oldin nafas olib boshlanadi.



Keyingi qismda mavzu chap qo’lda ijro etiladi va 1-2-3-taktlarning kuchli xissasiga aksent qilinadi. 3-taktda ozgina krishendo qilinadi. II qismda o’quvchi chap qo’ldagi mavzuni ko’rsatishga qiynalishi mumkin, bunda chap qo’lni alohida, o’g qo’lni alohida, *legato* dinamikasini ishlangandan so’ng qo’shib chalinadi.



Keyingi ibora *p* dan boshlanadi va mavzu yuqori va pastki ovozda ketadi. Bu iboraning 1-2-3-taktlari uch ovozli shaklda yozilgan, o’rta ovoz akkomponiment shaklida ifodalangan. Buni ishlashda ham har bir ovozni alohida shtrix, dinamikasini ishlab, avval o’ng qo’ldagi ikkita ovozni qo’shib keyin chap qo’lni qo’shamiz. Bu iborani *p* dan boshlab, 4-taktdagi *sf* ga krishendo qilib olib boriladi va biroz diminuendo qilinadi.



O’rta qismning 3-qismi birinchi to’rtta takti xuddi 1-qism kabi boshlanadi va davomi yana uchtovushlikda yozilgan. 5-taktda forte bilan boshlab darhol *p* qilinadi. Iborani oxirgi taktiga olib borib uni yechamiz.



Keyin esa nafas bilan III qismga o’tamiz. III qism I qismni aynan takrorlaydi, ammo bunda reprizalar ijro etilmaydi.



Активация Windows
Чтобы активировать Windows параметрам компьютера.

Bu asarda o’quvchi tovush ustida ishlashni, tinglashni o’rganadi. Chunki I qismdagi aksentlarga qaramasdan tovushlarni yaxlit tarzda ijro etish, o’rta qismning 1-qismi va 3-qismining dastlabki 4 ta taktidagi yashrin polifoniyani eshita bilishi lozim.

XULOSA

Robert Shumanning “Yoshlar uchun albom” turkumi fortepiano pedagogik repertuarida alohida o‘rin egallaydi. Ushbu maqolada kichik shaklli asarlar ustida ishlash jarayoni Shumanning mazkur turkumi misolida yoritildi. Tahlil jarayonida kompozitorning bolalar psixologiyasini chuqur his qilgani, ularning ichki kechinmalari va tasavvurlarini musiqiy obrazlar orqali aniq va ta’sirchan ifodalagani aniqlandi.

“Smeliy naezdnik”, “Narodnaya pesenka”, “Vesyoliy krestyanin” va “Ded moroz” pyesalarini o‘rganish orqali o‘quvchilarda barmoqlar mustahkamligi, qo‘llar mustaqilligi, tovush muvozanati, legato va stakkato ijro malakalari, shuningdek, musiqiy obrazni anglash va ifodalash ko‘nikmalari shakllanishi kuzatildi. Har bir asar o‘ziga xos texnik va badiiy vazifalarni bajarib, o‘quvchilarning ijrochilik mahoratini bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Robert Shumanning “Yoshlar uchun albom” turkumi nafaqat bolalar uchun mo‘ljallangan oddiy pyesalar majmuasi, balki musiqiy tafakkurni, eshitish qobiliyatini va badiiy didni tarbiyalovchi muhim pedagogik manba hisoblanadi. Ushbu asarlar bolalar musiqa maktablarida fortepiano ta’limining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Shuman R. Albom dlya yunoshestva. Op. 68 – Moskva: Muzyka nashriyoti.

2. Grigoryev V. Fortepiano pedagogikasi asoslari. – Moskva: Muzyka, 1985.

3. Neuhaus G. Fortepiano ijrochiligi san’ati haqida. – Moskva: Muzyka, 1988.

4. Asafyev B. Musiqa shakli va mazmuni haqida. – Moskva: Iskusstvo, 1971.

5. Alekseyev A. Fortepiano ijrochiligi metodikasi. – Moskva: Muzyka, 1991.

6. Sokolov O. Bolalar uchun fortepiano asarlari tahlili. – Sankt-Peterburg, 2004.

7. Abdullayev R. Bolalar musiqa maktablarida fortepiano o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010.